



O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI – SO'M: TARAQQIYOT BOSQICHLARI VA BARQARORLIK STRATEGIYALARI

Ilmiy rahbar: Egamberdiyev Muzaffar

Alfraganus University Iqtisodiyot fakulteti Dotsent v.b. (PhD)

20muzaffar@mail.ru

Qodirov Abubakr Nodirxon o'g'li

Alfraganus University Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)

yo'nalishi I - bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mning shakllanishi, hozirgi iqtisodiy holati va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Mamlakatda yangi pullarning ishlab chiqarilish sabablari, Pul-kredit siyosati, inflyatsiyani jilovlash va valyuta barqarorligini mustahkamlash yo'llari bo'yicha ilmiy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Milliy valyuta, inflyatsiya, monetar siyosat, iqtisodiy barqarorlik, so'm, valyuta kursi, eksport, Markaziy bank.*

KIRISH

Milliy valyuta – davlat iqtisodiy suverenitetining asosiy timsoli hisoblanadi. 1993-yilda muomalaga kiritilgan so'm O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Hozirgi davrda esa valyuta barqarorligini saqlab qolish va inflyatsiyani jilovlash masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Valyuta joriy qilinishi quyidagi sanalar bilan bevosita bog'liq masala edi;

- **1993-yil 15-noyabr** – kupon so'm muomalaga kiritildi.
- **1994-yil 1-iyul** – yangi so'm (UZS) muomalaga chiqarildi.
- **2017-yildan** boshlab erkin ayirboshlash kursi joriy qilindi.

Hozirgi holat ya'ni mustaqillikdan keying rivojlanish davomida O'zbekiston 2025-yilda so'm kursi **1 USD = 12 500–13 000 UZS** atrofida. Inflyatsiya darajasi esa: **10–12%** oraliqida. Mamlakatimizdagi Markaziy bank asosiy stavkani **14–16%** darajasida ushlab turibdi.

Bugungi kunda katta e'tibor qaratilayotgan vaziyat bu - Inflyatsiyadan saqlanish strategiyalari va buning uchun olib borilayotga islohatlar.

- Pul-kredit siyosatini kuchaytirish;
- Valyuta intervensiyalari;
- Davlat byudjeti intizomini kuchaytirish;
- Mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash.

Ba'zida biz guvohi bo'lamizki, davlatlar muomilaga yangi pullarni kiritadi sabalar va maqsadlar qiziq, Chunki O'zbekistonda ham bu holat ko'rilgan



1. Pul muomalasining yangilanishi va texnik eskirishi

- Qog‘oz pullar va tangalar ma’lum muddatdan keyin eskiradi va foydalanish uchun yaroqsiz bo‘lib qoladi.
- Yangilanish orqali pul birliklari yanada bardoshli, amaliy va zamonaviy dizaynga ega bo‘ladi.

2. Yuqori xavfsizlik texnologiyalari

- Qog‘oz pullarda qalbakilashtirishga qarshi kurashish uchun yangi xavfsizlik elementlari joriy etiladi (hologramma, rang o‘zgaruvchi siyoh, maxsus ip va h.k.).
- Eski pullar oson qalbakilashtirilgan bo‘lsa, yangi pullar buni ancha murakkablashtiradi.

3. Inflyatsiya va iqtisodiy ehtiyojlar

- Inflyatsiya tufayli mavjud pullar qiymat jihatidan yetarli bo‘lmay qolishi mumkin. Shuning uchun yirik nominaldagi pullar chiqariladi.
- Yirik savdo-sotiq va hisob-kitoblar uchun qulaylik yaratiladi.

4. Ijtimoiy va siyosiy sabablar

- Davlat mustaqilligi, tarixiy sanalar yoki milliy qahramonlarni aks ettirish maqsadida dizaynlar o‘zgartiriladi.
- Pul — davlat ramzlaridan biri bo‘lib, milliy g‘urur ifodasidir.

Yuqorida qayd etilgan ma’lumotlar pulni nega yangilash kerak? degan savolga javob bo‘la oldi menimcha. Endi bu holat mamlakatimizda qanday sabablar bilan bo‘y ko‘rsatdi:

1. Tarixiy davrlar

- 1993-yil: Kuponlar joriy etildi (o‘tish davri uchun).
- 1994-yil 1-iyul: “So‘m” milliy valyutasi rasmiy muomalaga kiritildi.
- So‘mning birinchi muomaladagi namunasi 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so‘mlik kupyuralar edi.

2. Yangi pullar va tangalar

- 2017-yildan boshlab 200 so‘m, 500 so‘m tangalar muomalaga kiritildi.
- 2019-yilda 50 000 so‘m, 2021-yilda 100 000 so‘mlik yangi kupyuralar chiqarildi.
- Ular zamonaviy xavfsizlik texnologiyalariga asoslangan va yirik hisob-kitoblar uchun qulaylik yaratadi.

3. Sabablar:

- Inflyatsiya sharoitida kichik nominaldagi pullar yetarli bo‘lmay qolgan.
- Pul aylanishida samaradorlik va tezlikni oshirish maqsad qilingan.
- Pulni saqlash va hisoblash xarajatlarini kamaytirish zarurati yuzaga kelgan.

4. So‘mning qadriyatini oshirish yo‘llari

- Eksport salohiyatini kengaytirish;
- Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

Xulosa: Mazkur tezis xotimasi ya’ni xulosasi sifatida aytish lozimki, O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi — so‘m, 1994-yil 1-iyuldan boshlab muomalaga kiritilgan bo‘lib, bu iqtisodiy mustaqillik sari muhim qadam bo‘ldi. Mustaqillikdan so‘ng





respublika o'zining pul-kredit siyosatini shakllantirib, milliy valyutani joriy etish orqali iqtisodiy barqarorlikni saqlash, mustaqil moliyaviy siyosat yuritish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Yillar davomida inflyatsiya, iqtisodiy o'sish, narxlar darajasining o'zgarishi va xalqaro savdo hajmining oshishi bilan bog'liq holda yangi yirik nominaldagi banknotlar muomalaga chiqarildi. 50 000 va 100 000 so'mlik kupyuralar — muomala qulayligini oshirish va aholining to'lov imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida muhim vosita bo'ldi. So'm kursi yillar davomida AQSh dollariga nisbatan muayyan pasayishlarga uchragan bo'lsa-da, so'nggi yillarda pul-kredit siyosatining liberallasuvi, erkin valyuta ayirboshlash tizimi va iqtisodiy islohotlar natijasida valyuta bozori barqaror holga keltirildi.

Kelajakda O'zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuvi, eksport salohiyatining oshishi, moliyaviy sektorning raqamlashtirilishi, shuningdek, xalqaro zaxiralarning mustahkamlanishi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Inflyatsiyani nazorat ostida saqlash, monetar siyosatning shaffofligi va ishonchli bank tizimi esa so'mning qadri va nufuzi uchun asosiy tayanch bo'lib qoladi. ovatsion va texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishni kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti – www.cbu.uz (<https://www.cbu.uz/>)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiy islohotlarga oid farmon va qarorlari.
3. Karimov I.A. “O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tish yo'lida” (kitob)
4. “O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi tarixi” – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki nashrlari.
5. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasining O'zbekiston bo'yicha hisobotlari.
6. Statistika agentligi rasmiy axborotlari – stat.uz (<https://stat.uz/>)
7. “Bank ishi asoslari” – O'zbekiston oliy ta'lim darsliklari, Iqtisodiyot universiteti nashri.
8. Milliy ommaviy axborot vositalari: “Yangi O'zbekiston” gazetasi, “Spot.uz”, “Gazeta.uz”

